

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Oyzoda Mamajonova No'monovna

Surxondaryo viloyat Denov tumanidagi

80-umumiyl o'rta ta'lism maktabi boshlag'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda boshlang'ich ta'lism sifati va samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanish asosiy omil hisoblanmoqda.

**Kalit so'zlar:** Multimedia, maktablar, axborotlar tezligi, intiluvchan, samaradorlik, o'quv materiali, zamonaviy pedagogik

**Abstract:** Today, the effective use of modern computer and information technologies is a key factor in improving the quality and efficiency of primary education.

**Key words:** Multimedia, schools, information speed, aspiration, efficiency, teaching material, modern pedagogy

O'zbekiston Respublikasing "Ta'lism to'g'risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingandan so'ng mamlakatimiz ta'lism tizimida xususan boshlang'ich ta'limda keng qamrovli ijobjiy ishlar amalga oshirildi.

Ta'lism sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, ular umumta'lism muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining didaktik o'quv materiali, dars ishlanmalari kabilar kiradi. Ta'lism tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lism olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lism-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan choratadbirlarni amalga ooshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga umumiyl o'rta ta'lism muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar maktablarining moddiy-texnik ta'minoti va ta'lism berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o'quvchi-yoshlarning ta'lism olishlari uchun teng-sharoitlar yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Boshlang'ich ta'lism sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan boshlang'ich sinf darslarini

o'rganishda rivojlantiruvchi muammoli hamda pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarini o'zida ifodalovchi "Multimedia- dars", "Slaydli dars", "Seminar dars" kabilarni qo'llash tavsiya etiladi. Seminar dars o'quvchilarning mustaqil chiqishlarini jamlovchi, lozim topilgan paytda munozaraga asos yaratuvchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda o'qituvchi boshqarib, yo'naltirib turish vazifasini bajaradi, o'quvchilar esa mustaqil ijodiy ishlovchi o'z fikriga ega shaxs sifatida o'quv faoliyatiga kirishadilar.

"Multimediali darslar"dan foydalanish ham boshlang'ich ta'lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Bu jarayonda o'qituvchi:

- o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etadi;
- yangi materialni jadallik bilan yetkaza biladi;
- axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko'magida boshqara oladi;

Ta'lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta'lim tizimini texnik jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi.

Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.O'quvchilarda esa "multimediali dars"lar fanga bo'lgan qiziqish uyg'otish, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni

o'rganishda o'zi uchun qulay bolgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishda "Interaktiv doska" ning ahamiyati katta. Interaktiv doska - zamonaviy axborot texnologiyalarni o'z ichiga qamrab oluvchi ta'larning yangi texnik vositasi bo'lib, o'quvchilarga axborot yetkazishning zamonaviy, qulay usuli hisoblanib o'qituvching o'quvchi bilim darajasi va qiziqishidan kelib chiqqan holda bilim berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Interaktiv doska ta'lim jarayoniga elektron o'quv va multimedia materiallarni olib kirish uchun samarali vositadir. Katta ekranga ya'ni elektron doskada axborotlarni yaxshi qabul qilishlari hisobiga o'quvchilarning fikrlash qobiliyati oshadi. O'quvchilar mustaqil ishlaydilar, sinfdoshlari va o'qituvchilari bilan birga fikrlaydilar. Dars jarayonidagi ushbu hamfikrlilik muhiti o'quvchilarning sinfdoshlari orasida mavqeい va o'ziga nisbatan ishonchining ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning fanga qiziqishlari kuchayib, o'quv materiali tez yodda saqlanadi. Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorlikni rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarni puxta bilishi boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligi ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida dars o'tish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T: 2008
2. Abdullaev M. Tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat. Muloqot. 1999. №3. 11-13 b.
3. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: Fan,2006.